

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Namangan viloyatining doimiy aholisi soni 2018 yil 1 oktyabr holatiga 2737,7 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 38,2 ming kishiga yoki 1,4 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1767,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 64,6%), qishloq aholisi soni 969,8 ming kishini (35,4 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2018 yil yanvar-sentabr

- Aholi soni **38,2 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **47,7 ming nafarni** tashkil etdi.
- **8,8 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **15,4 mingta nikoh** va **1,8 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Namangan viloyati aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-sentabr oylarida)



Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (1 oktabr holatiga, ming kishi)

Shahar va tumanlar nomi	2017 yil	2018 yil*	O'tgan yilga nisbatan o'ish sur'ati, %
Viloyat jami	2687,0	2737,7	101,9
Namangan shahri	597,4	608,7	101,9
tumanar			
Mingbuloq	120,1	122,4	101,9
Kosonsoy	198,7	202,7	102,0
Namangan	170,0	173,6	102,1
Norin	156,8	159,5	101,7
Pop	210,4	214,0	101,7
To`raqo`rg`on	215,2	219,4	102,0
Uychi	202,5	206,5	102,0
Uchqo`rg`on	164,6	167,4	101,7
Chortoq	189,8	193,5	101,9
Chust	253,9	258,4	101,8
Yangiqo`rg`on	207,7	211,6	101,9

*dastlabki ma'lumot

Namangan viloyati hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 oktabr holatiga eng ko'p aholi soni Namangan shahriida 608,7 ming kishini (Viloyat aholisi sonidagi ulushi 22,2 %ni) va Chust tumanida 258,4 ming kishini (9,4 %), aksincha eng kam aholi soni Mingbuloq tumanida 122,4 ming kishini (4,5 %) va Uchqo`rg`on tumanida 167,4 ming kishini (6,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Namangan tumanida 2,1 %ni, Kosonsoy tumanida 2,0 %ni, To`raqo`rg`on va Uychi tumanlarida 2,0 %ni, Namangan shahri, Chortoq va Yangiqo`rg`on tumanlarida 1,9 %ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Norin, Pop va Uchqo`rg`on tumanlarida 1,7 %ni tashkil etdi.

Demografik holat

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pul-satsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 47,7 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 23,5 promilleni tashkil etdi hamda 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,9 promillega oshgan (2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 22,6 promille bo'lgan) kuzatildi.


O'g'il bolalar:
25,1
ming nafar



Qiz bolalar:
22,6
ming nafar



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-sentabr)



Demografik holat

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 8,8 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 4,8 promille bo'lgan).


Erkaklar:
4,8
ming kishi



Ayollar:
4,0
ming kishi



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-sentabr)




Demografik holat

2018 yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 58,8 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,0 %i - o'simtalardan, 6,7 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,8 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,3 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,4 %i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 13,0 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 562 nafarni tashkil etib, ularning 38,6 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 31,1 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 17,6 %i - tug'ma anomaliyalardan, 3,2 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,6 %i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan va 4,9 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %)

2018 yil yanvar-sentabr



Demografik holat

Tabiiy o'sish. Namangan viloyatida 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 38,9 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 3,3 ming kishiga (2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 35,6 ming kishi bo'lgan) o'sgan.




Tabiiy o'sish:
38,9 ming kishi

Nikoh. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 15,4 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,6 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari To'raqo'rg'on (11,4 %), Mingbuloq (7,6 %), Uychi (4,4%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-sentabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




Nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,8 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar sonida 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Pop (34,1 %), Chortoq (30,9 %), Norin (23,3%) va kosonsoy (16,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

2017 yilning mos davriga nisbatan sezilarli kamayish Yangiqo'rg'on (26,1 %) va Namangan (15,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-sentabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Demografik holat

Migratsiya. 2018 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,6 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 4,3 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 0,7 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 1,0 ming kishi bo'lgan.



Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-sentabr	2018 yil yanvar-sentabr
Ko'chib kelganlar	2,9	3,6
Ko'chib ketganlar	3,9	4,3
Migratsiya saldosini	-1,0	-0,7

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Namangan shahrida (minus 1,0 ming kishi), Namangan tumanida plus 0,3 ming kishi) qayd etildi.